


## VII. ISTE'MOL BOZORI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 763,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 558,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 127,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 491,6 mlrd. so'mni (1,2 foiz o'sish kuzatildi), cavdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovar aylanmasi 4 713,5 mlrd. so'mni (10,1 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**




2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 6 762,7 mln. so'mni umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,9 % ni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shahri 25,3 %, Chiroqchi 10,5 %, Koson 10,2 %, Shahrisabz shahri 8,1 %, Kitob 6,5 % va Qamashi 5,6 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Shahrisabz tumani 3,3 %, Qarshi tumani 3,4 %, Mirishkor tumani 3,3 %, Muborak tumani 3,1 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Qashqadaryo viloyatida tuman va shaharlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**



Jumladan, 2021- yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 138,8 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 % o‘sish kuzatildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,8 % ulushi kichik tadbirkorlik sub’ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Tumanlarning umumi ovqatlanishdagi ulushi, foizda



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2 018,6 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahrida (6 130,8 ming so'mni), Shahrisabz shahrida (3 906,4 ming so'mni), Muborak tumanida (2 081,1 ming so'mni), Koson tumani (2 053,1 ming so'mni) kuzatildi.


**Chakana tovar aylanmasi umumiyligi (umumiyligi ovqatlanishni qo'shgan holda)**  
**(2021-yil yanvar-iyun)**

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>6 763,3</b>	<b>109,2</b>	<b>2 018,6</b>	<b>107,3</b>
G'uzor	250,0	105,9	1 197,7	103,7
Dehqonobod	306,7	104,7	2 037,6	102,7
Qamashi	379,1	103,4	1 374,7	101,9
Qarshi	226,7	97,7	892,0	95,5
Koson	687,9	105,1	2 355,0	102,8
Kitob	440,0	107,3	1 645,6	106,0
Mirishkor	223,7	103,2	1 833,4	101,1
Muborak	210,8	104,3	2 376,3	102,3
Nishon	254,3	105,8	1 627,1	103,7
Kasbi	250,1	103,5	1 246,7	101,5
Chiroqchi	709,8	114,1	1 680,8	111,4
Shahrisabz	223,9	97,4	997,5	96,4
Yakkabog'	336,6	104,0	1 260,3	102,7
Qarshi sh.	1 713,0	110,5	6 130,8	109,1
Shahrisabz sh.	550,8	146,7	3 906,4	145,0

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 315,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2020-yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga o'sish kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021-yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, 963,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 % ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 73,3 % ni tashkil qilmoqda.

### **Qashqadaryo viloyatida hududlarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda**



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 11,1 % ga o'sib 351,3 mlrd. so'mga yetdi va umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 26,7 % ni tashkil qildi.

## **Ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*(2021- yil yanvar-iyun)*

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan, % hisobida</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1 315,0</b>	<b>100,1</b>
G’uzor	16,5	62,2
Dehqonobod	49,9	96,3
Qamashi	16,1	42,3
Qarshi	95,4	112,0
Koson	98,8	98,3
Kitob	78,3	95,9
Mirishkor	45,5	59,7
Muborak	30,3	81,7
Nishon	23,5	83,8
Kasbi	36,1	141,0
Chiroqchi	40,5	112,1
Shahrisabz	30,2	97,1
Yakkabog‘	40,7	99,5
Qarshi sh.	599,0	112,2
Shahrisabz sh.	114,2	94,6

